

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO'TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO'TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

BOBOYEV AKRAMJON YO'LDASHBOYEVICH

**GaAs/Ge/ZnSe VA GaAs/Si/ZnSe KO'PTARKIBLI TUZILMALARIDA
NANOO'LCHAMLI OBYEKTЛАRNING SHAKLLANISH
JARAYONLARI**

01.04.10 - Yarimo'tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Boboyev Akramjon Yo'ldashboyevich GaAs/Ge/ZnSe va GaAs/Si/ZnSe ko'ptarkibli tuzilmalarida nanoo'lchamli obyektlarning shakllanish jarayonlari.....	3
Бобоев Акрамжон Йулдашбоевич Процессы формирования наноразмерных объектов в многокомпонентных структурах GaAs/Ge/ZnSe и GaAs/Si/ZnSe	25
Boboev Akramjon Yuldashboevich Formation Processes of Nanosized Objects in GaAs/Ge/ZnSe and GaAs/Si/ZnSe multicomponent structures.....	49
E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati Список опубликованных научных работ List of published research works	53

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

BOBOYEV AKRAMJON YO‘LDASHBOYEVICH

**GaAs/Ge/ZnSe VA GaAs/Si/ZnSe KO‘PTARKIBLI TUZILMALARIDA
NANOO‘LCHAMLI OBYEKT LARNING SHAKLLANISH
JARAYONLARI**

01.04.10 - Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.2. DSc/FM190 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot institutida va Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ispm.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi	Zaynabidinov Sirojiddin Zaynabidinovich fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Rasmiy opponenlar	Ruzikov Taxirdjon Mutalovich fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Arzikulov Eshkuvat Ulashevich fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Sharibayev Nosir Yusupjanovich fizika-matematika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot	O'zR FA Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/30.12.2019.FM/T 01.12 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «11» 10 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100057, O'zbekiston, Toshkent shahri, Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy. Tel. (99871) 248-79-94, faks: (99871) 248-79-92, e-mail: info@ispm.uz, O'zMU huzuridagi YaFM ITI majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (64 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100057, O'zbekiston, Toshkent shahri, Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy. Tel. (99871) 248-79-59, e-mail: info@ispm.uz.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «21» 09 kuni tarqatildi.
(2024-yil «21» 09 dagi 64 raqamli reestr bayonnomasi)



Sh.B. Utamurodova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f. d., professor

J.J. Hamdamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, k.i.x.

N.A. Turgunov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f. d., dotsent

Kirish. Fan doktori (DSc) dissertatsiyasining annotatsiyasi

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mikro va nanoelektronika mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoj va bu sohaning jadal sur‘atlarda rivojlanishi bugungi kun yetakchi olimlari va tadqiqotchilaridan ko‘p funksiyali, yuqori sezgir hamda tezkor elektron qurilmalar yaratishni talab qilmoqda. Bunday yuqori talablarni amalga oshirish uchun yangi yarimo‘tkazgichli materiallarni yaratish yoki amalda ishlab chiqarishda qo‘llanilayotgan elektron mahsulotlar xususiyatlarini boshqarish texnologiyalarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunga qadar ushbu maqsadda foydalanilayotgan yarimo‘tkazgichlarning energiyaviy va tuzilmaviy xossalarini o‘zgartiruvchi legirlash usullari hamda zarur kirishma atomlarining tabiatda yetishmasligi turli xil cheklovlarga sabab bo‘lmoqda. Shu munosabat bilan, so‘nggi yillarda yarimo‘tkazgichli materiallar negizida nanoo‘lchamli nobirjinsliklar (kristallitlar) shakllanishiga hamda elektron mahsulotlarning noyob xususiyatlarini boshqarishga asoslangan yangi yondashuv rivojlanib bormoqda. Mazkur nanoo‘lchamli obyektlar, texnologik va tashqi ta’sirlar (harorat, bosim, radiatsiya va boshqa) ostida yarimo‘tkazgich tuzilmalarining belgilangan xususiyatlarini ta’minlaydigan, kristall sohalarida shakllanishi natijasida ularning holatini o‘zgartiruvchi kvant o‘lchamli ta’sirni namoyon etgani uchun ularni tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda ko‘plab ilmiy tadqiqot markazlarida turli nanoo‘lchamli obyektlarga ega bo‘lgan yarimo‘tkazgichli epitaksial plyonkalar o‘stirish hamda bunday noyob nanokristallar olish uchun mavjud texnologik shart-sharoitlarni optimallashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, yarimo‘tkazgichlar sirtining to‘lqinsimon shakli, kvant nuqtalari va o‘ralari ko‘ptarkibli tuzilmalarning sirtiy sohalarini hamda subkristallarining bo‘linish chegaralarida shakllanishi jarayonlarini, shuningdek, mazkur nanoobyektlarni yarimo‘tkazgichli materiallarning xususiyatlariga ta’sirlarini o‘rganish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, bunday nanoobyektlarda tok tashuvchilarning harakati elektronlarning tebranma to‘lqin uzunligi bilan taqqoslanarli darajada bo‘lishi yuqori samarali va ko‘p funksiyali optoelektron mahsulotlar yaratish imkonini berib, bu kabi kvant o‘lchov effektlarini namoyon qiluvchi nanokristallitlar olish bo‘yicha o‘tkazilayotgan tadqiqotlar dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda so‘ngi yillarda xalq xo‘jaligining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan jadal islohotlar doirasida, yuqori sifatli elektron materiallar va tuzilmalar olish texnologiyasini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlari sifatini jahon miqyosiga ko‘tarishga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, «Elektrotexnika sohasida ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlarini rivojlantirish»¹ bo‘yicha vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, ko‘ptarkibli epitaksial plyonklar asosidagi tuzilmalarda nanoo‘lchamli

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

obyektlarning shakllanish jarayonlari va ularni yarimo'tkazgich materiallarining noyob xususiyatlariga ta'sirini o'rganish hamda bunday tuzilmalarni mikro va optoelektron mahsulotlar ishlab chiqarishga joriy etish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032 raqamli "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 30-maydagi PQ-4348-sonli "Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va tarmoqning investitsiyaviy hamda eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2018-yil 14-iyuldagi PQ-2772 raqamli "Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" va 2017-yil 26-maydagi PQ-3012 raqamli "2017-2021-yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi qarorlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining III va IV: "Energetika, energoresurs tejamkorligi, transport, mashina va asbobsozlik, zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika va elektron asbobsozligining rivojlanishi" va "Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish usullarini ishlab chiqish, nanotexnologiya, fotonika va boshqa zamonaviy texnologiyalar asosida yangi texnologiyalar va qurilmalar ishlab chiqish" ustuvor yo'nalishlariga mos keladi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.

Ko'ptarkibli tuzilmalarda kvant-o'lchamli nanobyektlarni shakllantirish mexanizmlari va ularning yarimo'tkazgich materiallari hamda qurilma tuzilmalarining fizik-kimyoviy xususiyatlariga ta'siri jahonning ko'plab yetakchi ilmiy markazlari va oliy o'quv yurtlarida, jumladan, Elektron texnologiyalar instituti (Moskva, RF FA), Yarimo'tkazgichli texnologiyalar instituti (Germaniya), Kaliforniya universiteti (AQSh)da o'rganilmoqda. Bundan tashari, A.F. Ioffe nomidagi Fizika-texnika instituti (Sankt-Peterburg, RF FA), Texnologiya instituti (Massachusetts, AQSh), Qattiq jismlar fizikasi instituti (RF FA), Tokio texnologiya instituti (Yaponiya), Yarimo'tkazgichlar fizikasi instituti (Kiev, Ukraina) kabi bir qator oliy ta'lim muassasalari mazkur sohada yetakchi rol o'ynamoqda.

Bugungi kunda jahonning ko'plab ilmiy markazlarida yarimo'tkazgichli mikro va nanoelektronikaning jadal rivojlanishi tufayli kvant-o'lchamli geterotuzilmalar va ularga asoslangan qurilmalarni ishlab chiqish va yaratishda salmoqli natijalarga erishildi. Uzlüksiz texnologik taraqqiyot nanoo'lchamli tuzilmalarni (kvant nuqtalar va o'ralar) yaratish uchun yetarli zamonaviy usullarni ishlab chiqishni, shuningdek, elektron asbobsozlik usullarini takomillashtirishni talab qiladi. Bunday tuzilmalarni yaratishda esa katta o'lchamdagi materialning xususiyatlarini yupqa qatlamlarga o'tkazish muammosi paydo bo'lmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. V.G. Dubrovskiy² (Rossiya) va K.A. Dik³ (Shvetsiya) boshchiligidagi ilmiy guruhlar A^3V^5 birikmalarining yarimo‘tkazgichli kvant o‘lchamli nanokristallarini tadqiq etdilar va nanoobyektlarning morfologik xususiyatlari, tarkibi va kristall tuzilishini belgilovchi termodinamik va kinetik omillarni ko‘rib chiqdilar. Nanokristallarning “bug‘-suyuqlik-kristall” mexanizmi bilan o‘shining fizik asoslari, nanoobyektlarni sintez qilishning asosiy epitaksial texnologiyalari va ularning o‘shisi va tuzilishining nazariy modellarini ham ishlab chiqdilar. Ukrainalik olim I.E. Maronchuk⁴ va uning ilmiy guruhi tomonidan GaAs va GaP asosida Ge, InAs, GaInAs, GeSi, Yb kvant nuqtalariga ega bo‘lgan nanogeterotuzilmalari olindi va ko‘p qatlamli geterotuzilmalarni o‘stirish bo‘yicha eksperimental ma’lumotlar taqdim etildi.

J.I. Alferov⁵ va P.V. Bulayevlar⁶ (Rossiya) boshchiligidagi ilmiy guruh InGaAs/GaAs/InGaP va InGaAs/GaAs/AlGaAs qattiq qorishma tizimlarida o‘ziga xos lazer tuzilmalarini yaratdilar. Ushbu tuzilmalarda to‘lqin qabulqilgichlar sifatida GaAs asosidagi yupqa pardalardan foydalanilgan. Bunday materialdan yasalgan lazer tuzilmasi samaradorlikni tushirmasdan nurlatgichlardagi ichki optik yo‘qotishlarni kamaytirishga imkon bergan. Natijada olingan tuzilmalar asosida lazer diodlari uzluksiz generatsiyalanish sharoitida rekord nurlanish quvvatiga erishgan. Bing Li Gu⁷ va M. Funato⁸ (Yaponiya), shuningdek, H. Farrel va R. Laviolettelar⁹ (Ispaniya) A^2B^6 va A^3B^5 yarimo‘tkazgich materiallaridan foydalanishni o‘rganib, elementar yarimo‘tkazgichlar asosida $(C_2^4)_{1-x}(A^2B^6)_x$ va $(C_2^4)_{1-x}(A^3B^5)_x$ turdagi qattiq qorishmalarni o‘stirib, ularning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirish mumkinligini ko‘rsatdi. Yang Bing Yi¹⁰ (Xitoy) bunday qattiq qorishmalarni o‘stirishning asosiy imkoniyatlarini taklif qildi.

O‘zbek olimlari M.S. Saidov¹¹, R.A. Mo‘minov¹² va ularning ilmiy guruhlari tomonidan GaAs asosida foydali ish koeffitsiyenti 17% bo‘lgan quyosh elementlari yaratildi. Mazkur quyosh elementlari suyuq fazali epitaksiya usuli bilan olingan n^+ -GaAs- n -GaAs- p -GaAs- p -Al_xGa_{1-x}As turdagi geterotuzilmalar bo‘lib, ular asosida injeksion lazerlar va fotoo‘zgartirgichlarni yaratishda ham samarali natijalarga erishildi. Shuningdek, S.Z. Zaynabidinov¹³ va A.S. Saidov¹⁴ boshchiligidagi ilmiy guruhlar tomonidan kremniy, germaniy, galliy arsenidi va galliy fosfidi asosidagi

²Дубровский В.Г. Теоретические основы технологии полупроводниковых наноструктур. СПб: Университет ИТМО, 2019. 225 с.

³Kimberly A Dick, et al. 2010. *Semicond. Sci. Technol.* no 25. P. 024009.

⁴Марончук И.Е., и др. 2012. *Nanosystems, Nanomaterials, Nanotechnologies.* Том. 10(1). С. 77-88.

⁵Алфёров Ж.И. и др. 2004. *Физика и техника полупроводников.* Том 38(8). С. 937-948.

⁶Булаев П.В., и др. 2002. *Физика и техника полупроводников.* Том 36(9). С. 1144-1148.

⁷Bing-Lin Gu et al. *Phys. Rev. B.* 1992. Vol. 45(8). P. 4071.

⁸Funato M. “Title control of interface properties in ZnSe-GaAs heterovalent heterostructures grown by metalorganic vapor phase epitaxy” Dissertation, Kyoto University, Kyoto, Japan, 2000. 157 p.

⁹Farrell H.H. and LaViolette R.A. *Journal of Vacuum Science and Technology B: Microelectronics and Nanometer Structures.* 2004. Vol. 22(4). P. 2250–2256.

¹⁰Jiang Bing-Yi, et al. *Acta Phys. Sin.* 2012. Vol. 61(13). P. 1-6.

¹¹Сайдов М.С. *Избранные статьи.* Ташкент, 2010. 117 с.

¹²Заверюхина Е.Б., и др. 2005. *Писма в ЖТФ.* Том 31(1). С. 54-66.

¹³Зайнабидинов С.З., и др. 2016. *Физика и техника полупроводников.* Том 50(1). С. 60-66.

¹⁴Saidov A.S., et. al. 2015. *Semiconductors.* Vol 49(4). P. 547–550.

turli nanoo'lchamli obyektlarga ega bo'lgan qattiq qorishmalar o'stirildi hamda ularning bir qator elektrofizik xususiyatlari o'rganilib, turli ko'rsatkichli diod tuzilmalari tayyorlandi.

Shu bilan birga, bugungi kunga qadar GaAs/Ge/ZnSe va GaAs/Si/ZnSe ko'ptarkibli tuzilmalarda nanoo'lchamli obyektlarning shakllanish jarayonlarini tavsiflash hamda ulardan olingan tuzilmalarning elektrofizik va optik xususiyatlariga ta'sirlarini tadqiq qilish muammolari yetarli darajada o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Andijon davlat universitetining OTM-F2-002 "Tashqi (termik, optik va radiatsion) ta'sirlar tufayli rag'batlantirilgan polikristall, amorf va nanokristalli kremniy tuzilmalaridagi nomuvozanatli zaryad tashish jarayonlari" (2008–2012-yillar) va OTM-2-68 "Kristallarda kirishma-nuqson turidagi mikro va nanobirikmalar hosil bo'lish mexanizmlari va ularning keng funksional imkoniyatli ko'pqatlamli tuzilmalar yaratishdagi o'rni" (2017–2020-yillar) mavzusidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. GaAs/Ge/ZnSe va GaAs/Si/ZnSe ko'ptarkibli tuzilmalar o'stirishning maqbul texnologik sharoitlarini aniqlash, bunday tuzilmalarda nanoo'lchamli obyektlarning shakllanish jarayonlarini, shuningdek, ularning olingan tuzilmalar elektrofizik va optik xususiyatlariga ta'sirini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tarkibida qalay yoki vismut bo'lgan aralashma-eritmadan $(\text{Ge}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$ va $(\text{ZnSe})_{1-x-y}(\text{Ge}_2)_x(\text{GaAs}_{1-\delta}\text{Bi}_\delta)_y$ epitaksial plyonkalarini o'stirish texnologiyasining maqbul shart-sharoitlarini aniqlash;

suyuq fazali epitaksiya usulida o'stirilgan GaAs/Ge/ZnSe va GaAs/Si/ZnSe ko'ptarkibli tuzilmalarda nanoo'lchamli obyektlarni shakllanish jarayonlarini tadqiq qilish;

o'stirilgan qattiq qorishmalarning tuzilmaviy mukammalligi hamda monokristallik darajasi, shuningdek, panjara doimiysi va fazoviy guruhini aniqlash;

GaAs/Ge/ZnSe va GaAs/Si/ZnSe ko'ptarkibli tuzilmalarda shakllangan nobirjinsliklarining tarkibi, sirtiy zichligi, o'lchami va geometrik shakllarini aniqlash;

GaAs/Ge/ZnSe va GaAs/Si/ZnSe ko'ptarkibli tuzilmalaridan tok o'tish mexanizmlarini tadqiq qilish;

ko'ptarkibli tuzilmalarning fotoelektrik xossalariga turli kirishma atomlari va nanoo'lchamli obyektlarning ta'sirini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida suyuq fazali epitaksiya jarayonlari, GaAs va Si asosida ko'ptarkibli GaAs/Ge/ZnSe va GaAs/Si/ZnSe tuzilmalar, shuningdek, $n\text{-Si-p}-(\text{Ge}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$ va $n\text{-GaAs-p}-(\text{ZnSe})_{1-x-y}(\text{Ge}_2)_x(\text{GaAs}_{1-\delta}\text{Bi}_\delta)_y$ geterotuzilmalarning xarakteristiklari olingan.

Tadqiqotning predmetini tuzilmaviy xususiyatlarni, ko'ptarkibli GaAs/Ge/ZnSe va GaAs/Si/ZnSe tuzilmalarda kvant-o'lchamli nanobyektlarni shakllantirish mexanizmlarini va ular asosidagi yupqa pardalarning elektrofizik va optik xususiyatlariga bunday nanokirishmalarning ta'sirini aniqlash.

Tadqiqotning usullari. Belgilangan vazifalar asosida turli nanokirishmali ko‘ptarkibli qattiq qorishmalar o‘stirish uchun suyuq fazali epitaksiya usulidan, tuzilmaviy tahlil uchun XRD-6100 rentgen difraktometri (Shimadzu)dan, sirt relyefini o‘rganish uchun atomiy kuchi mikroskopi (Solver Next)dan, yupqa pardalarning tarkibiy qismlarini aniqlash uchun rentgen mikroanalizator (“Jeol” JSM 5910 LV)dan, fotosezgirlikni o‘lchash uchun optik monoxromator (CARL ZEIS JENA)dan, shuningdek, namunalarning elektrofizik xususiyatlarini tekshirish uchun standart vositalar to‘plamidan foydalanildi. Olingan natijalarning grafikallari OriginPro2019 va Wolfram Mathematics 7 dasturlari yordamida tahlil qilindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marotaba tarkibida qalay yoki vismut bo‘lgan aralashma eritmadan turli nanokirishmali ko‘ptarkibli $(\text{ZnSe})_{1-x-y}(\text{Ge}_2)_x(\text{GaAs}_{1-\delta}\text{Bi}_\delta)_y$ va $(\text{Ge})_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})$ qattiq qorishmalari o‘stirilgan;

ilk marotaba suyuq fazali epitaksiya usuli yordamida o‘stirilgan nanoo‘lchamli tuzilmalar shakllanish jarayonlari va ularning o‘ziga xos jihatlari eksperimental tadqiqotlar asosida aniqlangan;

olingan $(\text{ZnSe})_{1-x-y}(\text{Ge}_2)_x(\text{GaAs}_{1-\delta}\text{Bi}_\delta)_y$ qattiq qorishmalar sfalerit tuzilishga ega bo‘lib, kristallografik orientatsiyasi (100) va panjara doimiysi $\sim 0,5663$ nm bo‘lgan monokristall ekani rentgenotuzilmaviy tadqiqot natijalari asosida aniqlangan;

$(\text{GaAs})_{1-x-y}(\text{Ge}_2)_x(\text{ZnSe})_y$ qattiq qorishmalar subkristallitlarining bo‘linish chegaralari hamda sirtiy sohalarida Ge atomlari va ZnSe molekullari o‘z-o‘zidan mos ravishda 44 nm va 59 nm o‘lchamdagi nanoobyektlar (kvant o‘ralar hamda kvant nuqtalar)ni shakllantirishi tuzilmaviy hamda morfologik tadqiqot natijalari asosida aniqlangan;

tarkibida vismut bo‘lgan aralashma-eritmadan o‘stirilgan qattiq qorishmalarning tuzilmaviy barqarorligi $\sim 17\%$ ga ortishi va ularning sirtiy sohalarida $30\div 40$ nm o‘lchamdagi $\text{GaAs}_{1-\delta}\text{Bi}_\delta$ konussimon nanoobyektlar (kvant o‘ralari)ning shakllanishi rentgenotuzilmaviy tadqiqot natijalarining qiyosiy tahlillari asosida aniqlangan;

$n\text{-GaAs-p-(ZnSe)}_{1-x-y}(\text{Ge}_2)_x(\text{GaAs}_{1-\delta}\text{Bi}_\delta)_y$ tuzilmalarda Ge atomlari va $\text{GaAs}_{1-\delta}\text{Bi}_\delta$ birikmalariga tegishli nanoobyektlarning mavjudligi tufayli ulardan tok o‘tishining to‘g‘ri yo‘nalishida zaryad tashuvchilarning dreyf mexanizmi namoyon bo‘lishi aniqlangan;

GaAs/Ge/ZnSe va GaAs/Si/ZnSe ko‘ptarkibli tuzilmalarida Ge, Si, GaAs va ZnSe atomlari ishtirokida shakllangan turli xil nanoobyektlar selektiv fotosezgirlikni namoyon etishi tadqiqot namunalaridan o‘tayotgan fototokning nisbiy qiymatlari asosida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

suyuq fazali epitaksiya usuli yordamida o‘stirilgan ko‘ptarkibli qattiq qorishmalarda yuqori sirtiy zichlikka ega bo‘lgan bir xil turdagi nanoobyektlarning shakllanishi aniqlangan;

GaAs/Ge/ZnSe va GaAs/Si/ZnSe tuzilmalardan elektron va termoelektron qurilmalar tayyorlashda, shuningdek, nurlanish spektrining infraqizil hamda ko‘zga

ko‘rinuvchi nurlar sohasida ishlaydigan fotofaol materiallar sifatida foydalanish mumkinligi aniqlangan;

Si asosida olingan GaAs/Ge/ZnSe va GaAs/Si/ZnSe tuzilmalaridan faol element sifatida foydalanish, tayyor yarimo‘tkazgichli asboblarni tannarxini tushirish imkonini berishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy rentgen difraktometrlari, energodispersiyaviy rentgen va infraqizil spektrometrlari, tasdiqlangan texnologiyalar asosida olingan materiallar, yuqori aniqlikda va jahon amaliyotida qo‘llanilishi bilan tadqiqotchilar ishonchini qozongan elektr, yorug‘lik sezuvchi qurilmalardan foydalanishga, shuningdek, olingan natijalar adabiyotlarda mavjud bo‘lgan ma‘lumotlar bilan qiyoslashga; yaxshi sinovdan o‘tgan eksperimental va o‘zaro bog‘lanmagan kompleks usullardan foydalanish; natijalarning yaxshi takroriylikligiga; hodisalarda umumiy fizikaviy tasavvurlar bilan xulosalarning izchilligiga; ularni umumiy fizikaviy qonuniyatlar va vizual kuzatish bilan taqqoslashga asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati GaAs/Ge/ZnSe va GaAs/Si/ZnSe ko‘ptarkibli tuzilmalarida kvant-o‘lchamli nanoobyektlar shakllanish jarayonlarini, shuningdek, suyuq fazali epitaksiya usuli yordamida o‘stirilgan epitaksial plyonkalarining elektrofizik hamda optik xususiyatlariga ushbu nanokristallarning ta’sirlarini o‘rganish mazkur sohaga tegishli bo‘lgan nazariy bilimlar va tushunchalarni kengaytirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati GaAs/Ge/ZnSe va GaAs/Si/ZnSe tizimlari asosida tayyorlangan ko‘ptarkibli geterotuzilmalardan yorug‘likka sezgir, yuqori samarali va ko‘p funksiyali mahsulotlar sifatida optoelektron qurilmalarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. GaAs/Ge/ZnSe va GaAs/Si/ZnSe ko‘ptarkibli tuzilmalar o‘stirishning maqbul texnologik sharoitlarini aniqlash, bunday tuzilmalarda nano-o‘lchamli obyektlarning shakllanish jarayonlarini, shuningdek, ulardan olingan tuzilmalar elektrofizik va optik xususiyatlariga ta’sirini tadqiq qilish asosida:

juftlashgan Ge₂ atomlari yuqori pardaning asosiy panjarasining nuqsonga moyil sohalarida ZnSe molekullari bilan qisman almashinishi va qolgan atomlar esa subkristallitlarning bo‘linish chegaralarida panjara doimiysi $a_{Ge} = 0.5659$ nm hamda o‘lchamlari 47 nm bo‘lgan germaniy nanokristallarni shakllantirishi, shuningdek, GaAs_{1-δ}Bi_δ birikmasi esa plyonkaning sirtiy sohalarida nanokirishmalarni, ya’ni 43 nm o‘lchamli kvant o‘ralarni shakllantirishi kabi tadqiqot mobaynida olingan ilmiy natijalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Yadro fizikasi institutining F2-FA-F120 raqamli “Kichik o‘lchamli yuqori haroratli o‘tao‘tkazgichlar, yarimo‘tkazgichli geterostrukturalar, metall va ularning oksidlarining elektron xossalari va radiatsiyaviy takomillashtirish” (2012–2016) mavzusidagi loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 2024-yil 29-maydagi 2/1255-1177 raqamli ma‘lumotnomasi). Ilmiy tadqiqotlar natijalaridan foydalanish tayyorlanayotgan geterotuzilmalarning

yorug'lik va haroratga sezgir bo'lgan noyob xususiyatlarini yaxshilashga imkon bergan;

n -GaAs- p -(GaAs $_{1-\delta}$ Bi $_{\delta}$) $_{1-x-u}$ (Ge $_2$) $_x$ (ZnSe) $_u$ geterotuzilma fotosezgirlik spektrida 1.61, 1.97 va 2.63 eV foton energiyalarida yuqori fotocho'qqilarni aniqlash usulidan, shuningdek, (Ge) $_{1-x-y}$ (GaAs) $_x$ (ZnSe) $_y$ qattiq qorishmalar mos molekulalarining ionlanish energiyasi turli qiymatlarga ega bo'lgan GaAs, Ge, ZnSe tashkilovchilari tufayli tanlanma fotosezgirlikka egaligidan «FOTON» AJda yarimo'tkazgichli elektron qurilmalar ishlab chiqarishda foydalanilgan ("Uzeltexsanoat" aksiyadorlik kompaniyasining 2024-yil 16-iyuldagi 04-3/1168 raqamli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish "Foton" AJda ishlab chiqarilayotgan elektron asboblarning funksional imkoniyatlarini kengaytirish imkonini bergan;

turli nanokirishmali ko'ptarkibli (ZnSe) $_{1-x-y}$ (Ge $_2$) $_x$ (GaAs $_{1-\delta}$ Bi $_{\delta}$) $_y$ va (Ge) $_{1-x-y}$ (GaAs) $_x$ (ZnSe) $_u$ qattiq qorishmalari vismut hosil qiluvchi aralashma eritmadan o'stirishning maqbul texnologik sharoitlari bo'yicha ilmiy-texnik tavsiyalaridan va nanoobyektlarning geometrik shakllari va o'lchamlari hamda ularning shakllanish mexanizmlarini aniqlash usullaridan Germaniya Milliy Fanlar Akademiyasi Fizika institutida "A&A Ausbildung und Arbeit Plus GmbH" ilmiy-texnika loyihasida foydalanilgan (Germaniya Milliy Fanlar Akademiyasi Fizika institutining 2022-yil 9-sentabrdagi 229-28207 raqamli ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijalarining qo'llanilishi p - n tuzilmalarda kirishmaviy fotoelektrik effektning samaradorligini oshirishga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot ishning asosiy natijalari 13 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya materiallari asosida 42 ta ilmiy ish, shu jumladan 2 ta monografiya, dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan nashrlarda 20 ta maqola e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, besh bob, xulosa, chop etilgan ilmiy ishlar ro'yxatidan iborat bo'lib, u 65 ta rasm, 9 ta jadval, 183 nomdagi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga olgan holda 203 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalari qisqacha shakllantirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va eksperimental natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqotning fan va texnikaning istiqbolli yo'nalishlari bilan bog'liqligi aniqlangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining bajarilishi, ish natijalari hamda dissertatsiyaning tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**GaAs/Ge/ZnSe va GaAs/Si/ZnSe asosidagi ko'ptarkibli qattiq qorishmalar tadqiqotining zamonaviy holati**" nomli birinchi bobida yarimo'tkazgichli asboblarning fizikasi nazariyasining rivojlanishiga katta hissa

qo‘shuvchi GaAs/Ge/ZnSe va GaAs/Si/ZnSe ko‘ptarkibli tuzilmalarda kvant-o‘lchamli nanoobyektlar shakllanishi bo‘yicha tadqiqotlarning nazariy va eksperimental natijalariga oid adabiyotlar tahlili keltirilgan. Turli nanokirishmalari bo‘lgan GaAs/Ge/ZnSe va GaAs/Si/ZnSe ko‘ptarkibli tuzilmalaridagi elektrofizik va optik jarayonlari hamda ularning batafsil tahlillari asosida belgilangan xususiyatlarga ega ko‘p funksiyali optoelektron mahsulotlarni ishlab chiqarish texnologik me‘yorlarini optimallashtirish uchun katta ilmiy va amaliy qiziqish uyg‘otishi aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Yarimo‘tkazgichli qattiq qorishmalar o‘stirishning texnologik xususiyatlari”** nomli ikkinchi bobida GaAs/Ge/ZnSe tizimi asosidagi epitaksial qatlamini o‘stirish texnologiyalari va kinetikasi ko‘rib chiqilgan. Ge-Ge va Zn-Se molekullari kristall panjaradagi galliy arsenidi tugunlarini (Ga-As) intensiv almashinishi, bu holda esa qatlamdagi GaAs miqdori 60-70 at.%. dan oshmasligi aniqlangan. Epitaksial qatlam qalinligi ortishi bilan Ge va ZnSe ning molyar miqdori oshib, yupqa parda yuzasida 10-20 mol% gacha, germaniy esa 15-25 mol% gacha yetgan. Natijada qattiq qorishmaning (GaAs)_{1-x}(Ge₂)_x subqatlami hosil bo‘lgan. Qattiq qorishmaning sirtiy qatlami asosan GaAs ga xos kristall panjaraning qiymatlari bilan aniqlangan. Texnologik me‘yorlarning muayyan termodinamik sharoitida (GaAs)_{1-x-y}(Ge₂)_x(ZnSe)_y qattiq qorishmaning o‘tish bufer qatlami yordamida galliy arseniddan rux selenga bir tekis o‘tishga erishilgan. GaAs, Ge va ZnSe larning panjara doimiylarini hamda issiqlikdan kengayish koeffitsiyentlarini yaqin qiymatdaligi bunday o‘tish qatlami taglik-epitaksial yupqa pardaning o‘tish sohasida yuzaga keluvchi elastik kuchlanishlar paydo bo‘lishini oldini oladi.

GaAs/Ge/ZnSe va GaAs/Si/ZnSe tuzilmalar majburiy sovitish yo‘li bilan qalayli hamda vismut hosil qiluvchi aralashma eritmadan suyuq fazali epitaksiya usuli yordamida o‘stirildi. Vismut hosil qiluvchi aralashma eritmadan o‘stirilgan tuzilmalarning tuzilmaviy barqarorligi hamda noyob fizik xossalari yaxshilandi. Shuningdek, GaAs/Ge/ZnSe va GaAs/Si/ZnSe tuzilmalar asosida namunalar ishlab chiqarish va olingan namunalarning ba‘zi fizik xususiyatlarini o‘rganish uchun zarur bo‘lgan yuqori aniqlikdagi texnologik hamda standart o‘lchov vositalaridan foydalanilgan.

Dissertatsiyaning **“Ko‘ptarkibli qattiq qorishmalarda kvant-o‘lchamli nanoobyektlarning shakllanish mexanizmlari”** nomli uchinchi bobida suyuq fazali epitaksiya jarayonida nanotuzilmaning shakllanish xususiyatlari va ularning nazariy hamda eksperimental natijalarning tahlili keltirilgan.

Kristall panjara doimiylari va suyuqlik (μ_s) hamda qattiq (μ_q) fazalarda kristallangan modda atomlarining kimyoviy potentsiallari orasidagi farq kristallanish jarayonini harakatlantiruvchi omil hisoblanadi. Binobarin, bloklarni ajralish chegaralarida hamda epitaksial qatlamlarning sirtlarida kichik elastik mexanik mikrobuzilishlar paydo bo‘lib, nanoobyektlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Nanoobyektning bitta atomi uchun x koordinata bilan muvofiqlashgan $E(x)$ energiya orqali aniqlanadi. Bu yerda $0 \leq x \leq d/2$, d – nanoobyekt asosining diametri. Bunday holatda kimyoviy potentsiallar farqini:

$$\Delta\mu' = \mu_j - \mu_t - E(x) = \Delta\mu - E(x) \quad (1)$$

ifoda bilan aniqlash mumkin. $E > \Delta\mu$ bo'lganida, $\Delta\mu'$ manfiy qiymatga ega bo'lgani tufayli kristallanish jarayoni erish jarayoni bilan almashinadi. Bunday sharoitda nanoobyektda mexanik mikrobuzilishning maksimal qiymati kuzatiladi. Asosiy yarimo'tkazgichning $a_1 = a_{\text{GaAsGe}}$ va nanoobyekt materialining $a_2 = a_{\text{ZnSe}}$ panjara doimiylari haroratga bog'lanmagan holda, ushbu o'sish sharoitida kurtaklanayotgan nanoobyekt asos diametrining maksimal qiymati (d)¹⁵:

$$d = 2 \sqrt{\frac{\Delta\mu(a_1 + a_2)a_1a_2N_s}{G(a_1 - a_2)^2}} \quad (2)$$

ifodadan $E(d/2) = \Delta\mu$ ko'rinishidagi hol uchun aniqlash mumkin. Bu yerda N_s – kurtakning birlik sirtidagi atomlar soni, G – siljish moduli. Epitaksial qatlamlarning subkristallitlari (bloklari)ning geterochegarasida hosil bo'lgan kurtaklar sferik segmentlar hisoblanib, ularning egrilik radiusi kristallanishning bunday sharoitida suyuq fazada hosil bo'lgan gomogen kritik kurtak radiusiga to'g'ri keladi, kurtakning egrilik radiusi:

$$r = \frac{2\sigma M}{\rho RT \ln \frac{C}{C_0}} \quad (3)$$

formula bo'yicha hisoblanadi. Bu yerda σ – suyuq fazadagi fazalararo sirtiy energiya, ρ va M – mos ravishda kurtak moddasining zichligi va molyar massasi; R – universal gaz doimiysi; C, C_0 – mos ravishda o'ta to'yingan va muvozanat holatlari eritmalaridagi asosiy yarimo'tkazgich (GaAsGe) hamda nanoobyekt (ZnSe) atomlarining konsentratsiyalari. Bu holda nanoobyekt geterogen kurtagining balandligi h :

$$h = r \left[1 - \left(1 - \frac{d^2}{(2r)^2} \right) \right] \quad (4)$$


ifoda bilan aniqlanadi. Nanoobyekt kurtagining o'sishi jarayoida GaAsGe hajmiy qatlamining doimiy elastikligiga mos keladigan qiymatlarigacha, geterochegaraga tutashgan (ZnSe) nanoobyekti qatlamida mexanik kuchlanishlar ortadi. Nanoobyektdagi kuchlanishlar normal bo'ylab asosiy yarimo'tkazgich tekisligiga yo'nalgan gradiyentga ega bo'lgani tufayli $\Delta\mu' < 0$ bo'lganida nanoobyekt asosida uning yonbosh yuzasining egri chiziqli ustki qismi shakllanadi. Shunday qilib, mexanik kuchlanishli bufer qatlam hosil bo'lganda, asosiy yarimo'tkazgich sirti bo'ylab joylashgan sohalarda ko'p miqdordagi nanoobyektlar hosil bo'ladi.

1-rasmda turli intensivlikka ega bo'lgan tanlanma tuzilmaviy akslanishlar nomoyon bo'lgan $(\text{GaAs})_{1-x-y}(\text{Ge}_2)_x(\text{ZnSe})_y$ epitaksial qatlamlarning rentgenogrammasi keltirilgan. Tahlillar yupqa parda sirti (100) kristallografik yo'nalishga ega bo'lgan monokristall ekanini ko'rsatdi. Kristallitlarining o'lchami asosiy (400) cho'qqining yarimkengligi bo'yicha baholanganda 52 nm ni tashkil etdi. Nelson-Reyli ekstrapolyatsion funksiyasi¹⁶

$$\xi = (1/2) \cdot [(\text{Cos}^2\theta/\theta + (\text{Cos}^2\theta/\text{Sin}\theta))] \quad (5)$$


¹⁵Марончук И.Е., и др. 2005. Поверхность, рентгеновские, синхротронные и нейтронные исследования, № 12. С. 97.

¹⁶Сетюков О.А., Самойлов А.И. 2011. Научные публикации сотрудников ВИАМ. Том 77(8). С. 4-12.



1-rasm. $(\text{GaAs})_{1-x-y}(\text{Ge}_2)_x(\text{ZnSe})_y$ epitaksial plyonka rentgenogrammasi

Tahlillar ularga ($2\theta = 45.1^\circ$) $d/n = 0.2010$ nm boʻlgan (220) va ($2\theta = 74.95^\circ$) $d/n = 0.1230$ nm boʻlgan (420) da kuzatilgan rux selen nanokristallitlar tegishlilikini koʻrsatdi. Oʻsish yoʻnalishlari turli boʻlishiga qaramay, bizning baholashlarimiz bu nanokristallitlar deyarli bir xil oʻlchamda, yaʼni 59 nm tartibida ekanini koʻrsatdi. Bu fakt rux selen nanokristallitlar $(\text{GaAs})_{1-x}(\text{Ge})_x$ qattiq qorishma sirtida nanoorolchalar – kvant nuqtalar koʻrinishida oʻsganini anglatadi. Shunday qilib, qattiq qorishmalarning kristallanish jarayonida tashkillovchilarning turli kristall panjaraning doimiylariga ega boʻlishi yupqa parda sirtida deyarli bir xil oʻlchamdagi nanoorolchalar (kvant nuqtalari) olish imkonini berishi aniqlandi.




2-rasm. $(\text{GaAs})_{1-x-y}(\text{Ge}_2)_x(\text{ZnSe})_y$ epitaksial plyonka sirtining ikki va uch oʻlchamli tasviri.

2-rasmda $(\text{GaAs})_{1-x-y}(\text{Ge}_2)_x(\text{ZnSe})_y$ epitaksial yupqa parda sirtining ikki va uch oʻlchamli tasviri koʻrsatilgan. Yupqa pardalar sirtida turli oʻlchamdagi alohida nanotuzilmalar hosil boʻlganini koʻrish mumkin. Tahlillar nanotuzilmalar asosining diametri 60 nm dan 70 nm gacha, balandligi esa 10 nm dan 12 nm gacha oraliqda oʻzgarib turishini koʻrsatdi. Atomiy kuchi mikroskopi bilan aniqlangan yupqa parda sirtidagi ZnSe nanokonulari (kvant nuqtalari) oʻlchamlari rentgenodifraksiya usul bilan tekshirilgan epitaksial yupqa pardada nanokristallitlar oʻlchami yaqin qiymatlarga egaligi aniqlandi. Ushbu maʼlumotlarga, shuningdek, oʻrganilayotgan tuzilmalarning tarkibini tahlillari natijalariga asoslanib, asosining radiusi $R = 25 \div 35$ nm, balandligi $h = 3 \div 12$ nm hamda zichligi $3.7 \cdot 10^9 \text{ sm}^{-2}$ boʻlgan ZnSe kvant nuqtalari

tufayli epitaksial qatlamlar sirtida nanoorolchalar kuzatilishi mumkinligi haqida xulosalar qilindi.

Rentgen mikrozonodi yordamidagi tahlillar natijalari asosida epitaksial qatlam chuqurligi bo'yicha ZnSe Ge₂ va GaAs_{1-δ}Bi_δ larning taqsimlanishi aniqlandi (3-rasm). 3-rasmdan (ZnSe)_{1-x-y}(Ge₂)_x(GaAs_{1-δ}Bi_δ)_y qattiq qorishma qalinligi bo'ylab GaAs va ZnSe ning molyar ulushi dastlab mos ravishda 72,5% va 63,8% maksimal qiymatiga yetguncha tekis ortganini ko'rish mumkin, bu Ge₂ va GaAs_{1-δ}Bi_δ kristallanish frontida aralashma eritma yuqori to'yinishga egaligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, Ge₂ va GaAs_{1-δ}Bi_δ ning molyar miqdori tekis kamayib, yupqa pardaning sirtga yaqin sohalarda 23% va 30% qiymatlarga erishadi.



3-rasm. (ZnSe)_{1-x-y}(Ge₂)_x(GaAs_{1-δ}Bi_δ)_y epitaksial qatlamida ZnSe, Ge₂ va GaAs_{1-δ}Bi_δ molekularining taqsimlanish profili. d=0 taglik va plyonka chegarasi.

Epitaksial qatlamning o'sishi chegaralangan hajmli aralashma eritmadan amalga oshirilgani va vismutda ZnSe qorishmasidan GaAs_{1-δ}Bi_δ qorishmasi 3 marta, Ge esa 2 marta kamligi uchun aralashma eritma qattiq fazasidagi Ge va GaAs_{1-δ}Bi_δ kiruvchanlik intensivligi kamayadi va bu o'sish yo'nalishida Ge va GaAs_{1-δ}Bi_δ molyar tarkibining yanada kamayib borishiga sabab bo'ladi. Yupqa parda sirtidan 1 mkm chuqurlikda Ge va GaAs_{1-δ}Bi_δ ning molyar miqdori o'z navbatida 23% hamda 30% dan oshmaydi. Shunday qilib, o'stirilgan plyonkalar


tashkillovchilarining tarkibi asta-sekin o'zgarib boradigan o'zaro o'rin almashinuvchi (ZnSe)_{1-x-y}(Ge₂)_x(GaAs_{1-δ}Bi_δ)_y (0 ≤ x ≤ 0,725 va 0 ≤ y ≤ 0,638) qattiq qorishmalarni hosil qildi. Taglik va yupqa pardaning sirtiy sohalari orasida Ge va GaAs_{1-δ}Bi_δ bilan boyitilgan tor sohali qatlam shakllanishi aniqlandi.

4-rasmda olingan (ZnSe)_{1-x-y}(Ge₂)_x(GaAs_{1-δ}Bi_δ)_y epitaksial qatlamining rentgenogrammasi keltirilgan. O'stirilgan yupqa parda yuzasi kristallografik yo'nalishga (100) mos kelishini ko'rish mumkin. Yupqa pardaning rentgenogrammasi (400)dan tuzilmaviy chiziqning intensivligi 11% ga kamaygan hamda kichikroq sohilish burchaklari tomon siljiganini (5-rasm), (200) tuzilmaviy akslanish intensivligi esa GaAs monokristallining xuddi shunday tuzilma chiziqlari intensivligiga nisbatan 2,8 marta kamayganini ko'rish mumkin. Kuzatilayotgan akslanishlar (ZnSe)_{1-x-y}(Ge₂)_x(GaAs_{1-δ}Bi_δ)_y qattiq qorishma kristall panjarasining o'zgarishini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan epitaksial yupqa pardaning panjara doimiylari qiymatlarini ikki: (200) hamda (400) akslanishlardan (5) formula yordamida 0.5663 nm ga tengligi aniqlandi. Bu qiymat sink selenning a_{ZnSe}=0,5661 panjara doimiysining jadvaldagi qiymatiga juda ham yaqin, GaAs monokristallining tagligi panjara doimiysidan (a_s=0,5653) biroz katta. Bu esa asosiy materialning panjarasining qiymati (ZnSe)_{1-x-y}(Ge₂)_x(GaAs_{1-δ}Bi_δ)_y qattiq qorishma


tashkillovchilarining boshqa kristall panjara qiymatiga yaqinlashayotganini ko'rsatadi, ya'ni asosiy qatlam ZnSe yarimo'tkazgichli birikmadan iboratligini tasdiqlaydi. Buning qo'shimcha tasdig'i sifatida $(\text{ZnSe})_{1-x-y}(\text{Ge}_2)_x(\text{GaAs}_{1-\delta}\text{Bi}_\delta)_y$ qattiq qorishma rentgenogrammasining noelastik fon sathi kichik va o'rta burchak (10° dan 60° gacha) sochilishlarida taglikning rentgenogrammasi fon sathidan 9% yuqoriligi xizmat qiladi. Bu yupqa parda panjarasida elastik energiya to'planishi ta'sirida mikrobuzilishlarning yuzaga kelishini ko'rsatadi. Kristall panjarada bunday mikrobuzilishning mavjudligi turli nanokirishmalar shakllanishi uchun sabab bo'lishi mumkin. (400) va (220) tuzilmaviy chiziqning yarimkengligi bo'yicha yupqa parda bloklar (kristallitlar) va Ge nanokristallitlarining o'lchamlarini quyidagi ifodadan¹⁷:

$$D = K\lambda/(\beta\cos\Theta), \quad (6)$$

aniqlandi. Bu yerda D – kristallitlarning o'lchami, nm larda, λ – nurlanish to'lqin uzunligi, bizning holda 0.154 nm ga teng, θ – sochilish burchagi ($2\theta_B$ difraksiya yarimburchagi), β – difraktogrammada chiziqning fizik kengligi (yarim maksimal intensivlikdagi refleks kengligi) radianlarda, $K \approx 0,94$ koeffitsiyent. Yuqoridagi formula bo'yicha D ning qiymatlari hisoblanganda, qattiq qorishma kristallitlarining o'lchami 60 nm ga, Ge_2 nanokristallitlarining o'lchami esa 47 nm ga tengligi aniqlandi. Ge nanokristallarining panjara doimiysi tajriba yo'li bilan (5) formula yordamida $a_{\text{Ge}} = 0.5659$ nm ga tengligi va bu uning jadval qiymatiga $a_{\text{Ge}} = 0,5657$ nm yaqin ekani aniqlandi.



4-rasm. $(\text{GaAs}_{1-\delta}\text{Bi}_\delta)_{1-x-y}(\text{Ge}_2)_x(\text{ZnSe})_y$ epitaksial yupqa pardasining rentgenogrammasi



5-rasm. Taglik GaAs va $(\text{GaAs}_{1-\delta}\text{Bi}_\delta)_{1-x-y}(\text{Ge}_2)_x(\text{ZnSe})_y$ epitaksial yupqa pardalarining (400) dif-raksion akslanish shakli.

Yupqa parda rentgenogrammasida $2\theta = 50,9^\circ$ va $2\theta = 84,8^\circ$ sochilish burchaklarida mos ravishda $d/n = 0,1791$ nm bo'lgan (311) va $d/n = 0.1143$ nm bo'lgan (511) tekisliklardan ikkita kuchsiz tuzilmaviy chiziqlar kuzatilgan. Tahlillar bu tuzilmaviy chiziqlarni $\text{GaAs}_{1-\delta}\text{Bi}_\delta$ ko'rinishidagi birikmaga tegishlilikini ko'rsatdi. (311) va (511) reflekslar bo'yicha (5) formula yordamida $\text{GaAs}_{1-\delta}\text{Bi}_\delta$ birikmasining panjara doimiysi eksperimental ravishda aniqlandi. Asosiy qatlam va $\text{GaAs}_{1-\delta}\text{Bi}_\delta$ birikmasining panjara doimiylarining nomuvofiqligi quyidagi¹⁸:

¹⁷Иванов А.Н., и др. Кристаллография, рентгенография и электронная микроскопия. Москва: Металлургия, 1982. 632 с.


¹⁸Губа С.К., Юзевич В.Н. Физика и техника полупроводников. 2014. Том 48(7). С.932-937.

$$\xi = 2|a_{m.s} - a_{GaAsBi}| / (a_{m.s} + a_{GaAsBi}), \quad (7)$$

ifodadan aniqlandi va bizning hol uchun 0,048, ya'ni GaAsBi/ZnSe (100) tizimlari panjara nomuvofiqligi 4,8% ni tashkil etdi. Bu farq yupqa pardaning sirtga yaqin sohalarda nanoobyektlarning shakllanishiga olib kelishi ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari, nanokirishma materiallari va asosiy qatlam atomlarining kovalent bog'lanish energiyasiga asoslanib, ularni "kvant nuqtalar" hamda "kvant o'ralar"ga quyidagicha bo'lish mumkin: nanokirishmalarning man etilgan soha ($E_{g,A}$) kengligi asosiy yarimo'tkazgich man etilgan soha ($E_{g,B}$) si kengligidan katta ($E_{g,A} > E_{g,B}$) bo'lsa, kvant nuqta va aksincha ($E_{g,A} < E_{g,B}$) bo'lsa, kvant o'ra shakllanadi¹⁹. Shuningdek, tashkillovchilarning kimyoviy tarkibiga qarab $GaAs_{1-\delta}Bi_{\delta}$ birikmasining man etilgan sohasi kengligini quyidagi ifoda²⁰:

$$E_{GaAsBi} = (1-\delta)E_{g,GaAs} + (\delta)E_{g,GaBi} - \xi(\delta)(1-\delta) \quad (8)$$

yordamida aniqlandi. Bu yerda δ – $GaAs_{1-\delta}Bi_{\delta}$ birikmasidagi rentgen mikrozonddli tahlil natijalari asosida aniqlangan $\delta = 0,125$ qiymatga ega bo'lgan Bi atomining ulushi. ξ ni (7) ifodadan aniqlangan, bizning hol uchun 0.18 ga teng bo'lgan GaAs va GaBi panjara doimiylarining nomuvofiqligi. Bizning hol uchun $GaAs_{1-\delta}Bi_{\delta}$ birikmaning man etilgan soha kengligining qiymati 1.21 eV ga teng. Ushbu qiymat asosiy qatlam man etilgan sohasi kengligining eksperimental qiymatidan ($E_{q,q.} = 1,53$ eV) kichik va $GaAs_{1-\delta}Bi_{\delta}$ birikma yupqa pardaning sirtiy sohalarida nanokirishmalarni, ya'ni kvantli o'ralarni shakllantiradi. Bu kvant o'ralarning o'lchamlarini (6) formula yordamida (311) va (511) tuzilmaviy akslanishlarning eksperimental kattaliklaridan aniqlanganda, 43 nm ni tashkil qildi.



6-rasm. $(ZnSe)_{1-x-y}(Ge_2)_x(GaAs_{1-\delta}Bi_{\delta})_y$ epitaksial pardasi sirtining ikki va uch o'lchamli tasviri


6-rasmda $(ZnSe)_{1-x-y}(Ge_2)_x(GaAs_{1-\delta}Bi_{\delta})_y$ epitaksial yupqa pardaning ikki va uch o'lchovli atomiy kuchi mikroskopi tasviri ko'rsatilgan. Undan yupqa pardalar sirtida turli o'lcham hamda shakldagi alohida nanoobyektlar hosil bo'lganini ko'rish mumkin.

Epitaksial qatlamlarning fizik xususiyatlari nanokonusning shakllari va zichligiga (tana burchagiga) uzviy bog'liq bo'lib, agar burchak 60° ga yaqin bo'lsa, u holda nanokonus kvant nuqta tizimidir - 0D; agar burchak 180° ga intilsa,

¹⁹Saidov A.S., et. al. 2017. Appl. Sol. Energy. Vol. 53. P. 287–290.

²⁰Комков О.С. Расчёт полупроводниковых гетеропереходов. Учеб. метод. пособие Изд-во СПбГЭТУ «ЛЭТИ», 2018. 52 с.

nanokonus kvant o'ra tizimiga aylanadi - 2D; va agar burchak 0° ga intilsa, unda nanokonus sim tizimiga aylanadi - 1D²¹. Bizning holatda, nanokonusning tana burchagi 180 ga intiladi, ya'ni ular kvant o'ralar ekanini tasdiqlaydi. Tahlillar nanokonuslar asosining diametri 40 dan 50 nm gacha va balandligi 3 dan 12 nm gacha o'zgarishini ko'rsatdi. Bunday ma'lumotlar, shuningdek, tadqiq etilayotgan namunalarning tuzilmaviy tahlil natijalari asosida, $(\text{ZnSe})_{1-x}(\text{Ge}_2)_x$ qatlam sirtida nanokonuslar, ya'ni $\text{GaAs}_{1-\delta}\text{Bi}_\delta$ nanokristallitlari shakllanadi degan xulosaga kelish mumkin.



7-rasm. $(\text{Ge})_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$ epitaksial parda rentgenogrammasi

qattiq qorishma subkristallitlarining o'lchami 53 nm tengligi aniqlandi. Shunday qilib, olingan $(\text{Ge})_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$ epitaksial qatlamlar (111) orientatsiyali va panjara doimiysi $a_{\text{q.q.}}=0,5658$ nm hamda Fd3m fazoviy guruhiga kiruvchi olmossimon tuzilishga ega bo'lgan monokristall ekani ko'rsatildi.


Bundan tashqari, yupqa pardaning rentgenogrammasida sezilarli intensivlikka ega bo'lgan yangi tuzilmaviy akslanishlar paydo bo'lgan. Tajriba natijalarining tahlili ($2\theta = 45,5^\circ$) $d/n = 0,1995$ nm va ($2\theta = 83,9^\circ$) $d/n = 0,1154$ nm bo'lgan (220) va (422) tekisliklaridan bunday tuzilmaviy chiziqlar GaAs nanokristalliga tegishlilikini ko'rsatadi. (6) formula yordamida (220) va (422) tuzilmaviy chiziqlarning eksperimental kattaliklaridan GaAs nanokristallarining o'lchamlari mos ravishda 51 nm hamda 47 nm ni tashkil etishi aniqlandi. $(\text{Ge})_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$ qattiq qorishmaning rentgenogrammasida yupqa pardaning asosiy qatlami (111) tekislik bilan izchil bog'langan ZnSe fazasiga tegishli nanokristallitlarning (222) va (333) turidagi kristallografik tekisliklarda yana ikkita tuzilmaviy akslanishi ham paydo bo'lgan.

8-rasmdan Si tagliklariga $T=750^\circ\text{C}$ boshlang'ich kristallanish haroratida o'stirilgan orolchalar va o'ralar bilan tekis qatlama ega bo'lgan yupqa parda sirtining tasvirini ko'rish mumkin. Lekin bunday qatlamlar noaniq sirtga va ko'plab nanoo'lchamdagi obyektlarga, ya'ni nanoorolchalarga ega. Kristall panjara doimiylarining ($a_{\text{Si}}=5,43 \text{ \AA}$) ($a_{\text{GaAs}} \approx a_{\text{Ge}} \approx a_{\text{ZnSe}}=5,65 \text{ \AA}$) nomuvofiqligi, ya'ni 4% ni

7-rasmda kremniy tagliklariga o'stirilgan $(\text{Ge})_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$ qattiq qorishmaning rentgenogrammasi ko'rsatilgan. Rentgenogrammaning (111) tuzilmaviy chizig'ining yuqori intensivlikdaligi ($2 \cdot 10^5 \text{ imp} \cdot \text{s}^{-1}$) va yarim kengligi ($\text{FWHM} = 2,620 \cdot 10^{-3} \text{ rad}$), $(\text{Ge})_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$ epitaksial qatlam kristall panjarasining yetarlicha yuqori darajada mukammalligidan dalolat beradi. (6) formuladan D ning qiymati hisoblanganda

²¹ Artur Medvid, et al. Nanoscale Research Letters. 2013, 8, pp. 264.

tashkil qilishi, shuningdek, issiqlikdan chiziqli kengayish koeffitsiyentlari, xona haroratida ($\alpha_{Si}=5.1 \cdot 10^{-6} \text{ grad}^{-1}$, $\alpha_{Ge}=6,1 \cdot 10^{-6} \text{ grad}^{-1}$, $\alpha_{GaAs}=5,9 \cdot 10^{-6} \text{ grad}^{-1}$ i $\alpha_{ZnSe}=7 \cdot 10^{-6} \text{ grad}^{-1}$) farqlari tufayli $(Ge_2)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y$ epitaksial qatlam sirtiy sohalarida nanoshakllanishlar yuzaga kelish mumkin.



8-rasm. $(Ge_2)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y$ qattiq qorishma sirtining atomiy kuchi mikroskopi tasviri.

Dissertatsiyaning
“GaAs/Ge/ZnSe va GaAs/Si/ZnSe ko‘ptarkibli geterotuzilmalarda tok o‘tish mexanizmlari” nomli to‘rtinchi

bobi ko‘ptarkibli GaAs/Ge/ZnSe va GaAs/Si/ZnSe geterotuzilmalarning elektrofizik xossalari bo‘yicha eksperimental natijalariga bag‘ishlangan. 9-rasmda n -GaAs- p - $(ZnSe)_{1-x-y}(Ge_2)_x(GaAs_{1-\delta}Bi_\delta)_y$ geterotuzilmalarning turli haroratlarda logarifmik masshtabda to‘g‘ri yo‘nalishdagi voltamper xarakteristikalari keltirilgan. Voltamper xarakteristikaning boshlang‘ich 0,1 dan 0,3 V gacha bo‘lgan qismida sakrash sohasi kuzatiladi: $J \sim V^\alpha$ ($\alpha \approx 2$) (9-rasm). O‘tkazilgan tahlillar ko‘rsatishicha, bunday bog‘lanish quyidagi²²:

$$V = M(J)B_0 \sqrt{\frac{J}{2}} \quad (9)$$

qonuniyatga bo‘ysunadi. Bu holda $M(J)$ quyidagi:

$$M(J) \approx 1 + 3m \left[2 + C(\alpha \tau_i / c_p) \sqrt{J} \right]^2, \quad (10)$$

formula orqali hisoblanadi. Bunda $m = 2\tau_i N_d V_p^* / 8b(b+1)n_p d$ va $C = [bn_p / qV_p^*(b+1)]$. Bu munosabatlarda V_p^* – injeksiyalanuvchi kontaktning nomukammallik tavsifiga bog‘liq bo‘lgan kattalik.

9-rasmda ko‘rsatilganidek, $V = 0,4$ V boshlab kuchlanishning navbatdagi ortishi bilan, daraja ko‘rsatgichi $\alpha \approx 8$ bo‘lgan $J = A \cdot V^\alpha$ tokning keskin ortishi kuzatildi. Bunday soha oldbuzilish deb nomlanadi va rekombinatsiya tezligi Shokli-Rid statistikasiga bo‘ysunmaydi hamda voltamper xarakteristika mos ravishda

$$J = \frac{q^2(b+1)^2 N_r d^3}{\varepsilon \tau_i^2 c_p (V_0 - V)} \quad (11)$$

bilan ifodalanadi. Bu yerda ε – dielektrik singdiruvchanlik va

$$V_0 = \sqrt{\frac{q(b+1)N_r d^4}{2\varepsilon \tau_i \mu_p}} = const. \quad (11) \text{ dan ko‘rinadiki, bu ifodaning maxraji kuchlanish}$$


ortishi bilan kamayadi, ya’ni tok tez ortadi.

²²Саидов А.С. и др. 2020. Письма в ЖТФ. Том 46(22). С. 23-26.

Kuchlanishni 0.9 dan 1.5 V gacha davomli orttirilganda, voltamper xarakteristikaning $J = A \cdot V^{3.2}$ ifoda bilan tavsiflanuvchi soha kuzatildi (9-rasm) va nomuvozanat tok tashuvchilar rekombinatsiyasi asosan kechikish bilan, ya'ni komplekslar ishtirokidagi ichki elektron almashinuvi sodir bo'lganda amalga oshirilishi va voltamper xarakteristika quyidagi²³:

$$V = \frac{(d+1)d^2 N_r}{N_d \mu_p \tau_i} + \frac{d}{q \mu_p (b+1) C} \sqrt{J} - \frac{2(b+1) N_r d^2 c_p}{N_d \mu_p \alpha \tau_i C \sqrt{J}} = A + B \sqrt{J} - \frac{D}{\sqrt{J}} \quad (12)$$

analitik ifodaga ega bo'lishi kuzatildi. Bu yerda A , V va D chuqur kirishmalarning ionlashgan atomlarining konsentratsiyasiga bog'liq bo'lgan kattaliklar,



9-rasm. Turli haroratlarda n -GaAs- p -(GaAs $_{1-\delta}$ Bi $_{\delta}$) $_{1-x-y}$ (Ge $_2$) $_x$ (ZnSe) $_y$ geterotuzilmasi voltamper xarakteristikasining logarifmik masshtabdagi to'g'ri yo'nalishi 1 – 30 °C, 2 – 50 °C, 3 – 70 °C, 4 – 90 °C, 5 – 110 °C, 6 – 130 °C, 7 – 150 °C.

